

## KREDIT-MODUL TIZIMIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA MANTIQUIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

**Xudoynazarov Egambergan Madraximovich**

**Ma‘mun universiteti o‘quv ishari bo‘yicha prorektori, p.f.f.d. (PhD), dotsent**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20320609>

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda kredit-modul tizimi sharoitida boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati, nazariy asoslari hamda amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta‘lim jarayonida interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar, mustaqil ta‘lim va raqamli texnologiyalar orqali talabalarning analitik va tanqidiy tafakkurini shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** kredit-modul tizimi, mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, interaktiv metodlar, mustaqil ta‘lim, raqamli ta‘lim, analitik tafakkur, innovatsion ta‘lim.

### **Kirish**

Mantiqiy fikrlash — bu insonning voqea-hodisalar, tushunchalar va bilimlar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini anglay olishi, ma‘lumotlarni tahlil qilishi, umumlashtirishi, dalillashi hamda asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatidir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun ushbu kompetensiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlash, savol berish, taqqoslash, ajratish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi dastlabki intellektual ko‘nikmalar aynan o‘qituvchi rahbarligida shakllanadi. Agar o‘qituvchining o‘zida mantiqiy fikrlash madaniyati yetarlicha rivojlangan bo‘lmasa, u o‘quvchilarda mustaqil tafakkur, izchil mulohaza yuritish va ongli o‘rganish ko‘nikmalarini samarali shakllantira olmaydi.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi oliy ta‘lim jarayonida talabaning shaxsiy faolligi, mustaqil ta‘limi, individual ta‘lim trayektoriyasi va o‘zlashtirish natijalariga bo‘lgan mas‘uliyatini kuchaytiradi. An‘anaviy ta‘lim modelida talaba ko‘proq tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt sifatida qaralgan bo‘lsa, kredit-modul tizimida u bilimni izlovchi, tahlil qiluvchi, mustaqil xulosa chiqaruvchi va amaliyotda qo‘llovchi faol ishtirokchiga aylanadi. Bu esa mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlar yaratadi. Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish kredit-modul tizimining mazmuni bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki mazkur tizimda o‘quv fanlari modullar asosida tashkil etiladi, har bir modul aniq o‘quv natijalari, baholash mezonlari va mustaqil topshiriqlar bilan uyg‘unlashadi. Talaba har bir modul doirasida ma‘lumotlarni tahlil qilish, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarga tatbiq etish, muammoli topshiriqlarni bajarish, dalillar asosida fikr bildirish va o‘z qarashlarini asoslash zaruratiga duch keladi. Aynan shu jarayonlarda uning mantiqiy tafakkuri izchil rivojlanadi. Kredit-modul tizimida mustaqil ta‘lim ulushining ortishi talabadan yuqori darajadagi o‘zini-o‘zi boshqarish, vaqtni rejalashtirish, axborotni saralash va baholash, muhim va ikkilamchi ma‘lumotlarni ajrata olish kabi ko‘nikmalarni talab qiladi. Bu jihatlar mantiqiy fikrlash kompetensiyasining amaliy ko‘rinishlari hisoblanadi. Talaba mustaqil topshiriqlarni bajarish jarayonida tayyor javoblarni yodlash bilan cheklanmaydi, balki masalaga ijodiy va tahliliy yondashadi, mavjud bilimlarni yangi sharoitda qo‘llaydi hamda o‘z xulosalarini asoslashga harakat qiladi.

Kredit-modul tizimi sharoitida ushbu kompetensiyani rivojlantirishda interaktiv metodlar, muammoli ta‘lim, keys-stadi, loyiha metodi, munozara, aqliy hujum, konseptual xaritalar, refleksiv topshiriqlar va raqamli ta‘lim vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunday metodlar

talabani faqat tinglovchi emas, balki faol fikrlovchi, izlanish olib boruvchi va o'z pozitsiyasini asoslay oluvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim metodikasi, ona tili, matematika, pedagogika va psixologiya fanlarida mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlarni tizimli qo'llash talabalar tafakkurining izchilligi va mustaqilligini oshiradi.

Kredit-modul tizimida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish masalasi, avvalo, oliy ta'limning mazmuniy va tashkiliy jihatdan yangilanishi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki mazkur tizimda talaba tayyor bilimlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki o'z ta'lim trayektoriyasini mustaqil belgilovchi, bilimlarni izlovchi, tahlil qiluvchi va amaliyotda qo'llovchi faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa ta'lim jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishni tasodifiy yoki qo'shimcha faoliyat emas, balki o'quv jarayonining asosiy metodik yo'nalishlaridan biri sifatida qarashni talab etadi.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasining shakllanishi ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan uzviy bog'liq. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarga faqat o'qish, yozish va hisoblash ko'nikmalarini o'rgatuvchi mutaxassis emas, balki ularning dastlabki tafakkur madaniyatini shakllantiruvchi pedagog hisoblanadi. Aynan boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalarda taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, savol qo'yish va xulosa chiqarish kabi intellektual harakatlar shakllana boshlaydi. Shunday ekan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'zida mantiqiy fikrlash yetarli darajada rivojlangan bo'lishi uning kasbiy tayyorgarligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Kredit-modul tizimi mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan kengroq imkoniyatlarga ega. Buning asosiy sababi shundaki, kredit-modul tizimida har bir fan ma'lum modullarga ajratiladi, har bir modul bo'yicha aniq o'quv natijalari belgilanadi, talabaning auditoriya va mustaqil ta'lim faoliyati uyg'unlashtiriladi. Natijada talaba har bir modul doirasida ma'lumotni o'zlashtirish, uni qayta ishlash, tahlil qilish, mavjud bilimlar bilan bog'lash va amaliy vaziyatlarga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon mantiqiy fikrlashning izchillik, asoslanganlik, tahliliylik va xulosalash kabi tarkibiy jihatlarini rivojlantiradi.

Biroq amaliyotda kredit-modul tizimining imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotgani kuzatiladi. Ayrim hollarda modulli ta'lim faqat o'quv yuklamasini kreditlarga ajratish yoki baholash mezonlarini o'zgartirish bilan cheklanib qolmoqda. Aslida esa kredit-modul tizimining mohiyati talabaning mustaqil fikrlashi, akademik mas'uliyati va individual rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir. Agar o'quv modullari mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar, muammoli savollar, amaliy vaziyatlar va refleksiv mashqlar bilan boyitilmasa, mazkur tizimning pedagogik samaradorligi yetarli darajada namoyon bo'lmaydi.

Mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda fanlararo integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan pedagogika, psixologiya, ona tili o'qitish metodikasi, matematika o'qitish metodikasi, tabiiy fanlar, tarbiya nazariyasi va didaktika kabi fanlar o'zaro mantiqiy bog'liqlikda tashkil etilganda talaba bilimlarni alohida-alohida emas, balki yaxlit pedagogik tizim sifatida anglaydi. Masalan, matematika o'qitish metodikasida masala yechish algoritmlari orqali sabab-oqibat munosabatlari o'rgatilsa, ona tili metodikasida matn tahlili orqali dalillash, izohlash va umumlashtirish ko'nikmalari rivojlanadi. Pedagogika va psixologiya fanlarida esa talabalar o'quvchi shaxsining rivojlanishini tahlil qilish, pedagogik vaziyatlarga baho berish va asoslangan qaror qabul qilishni o'rganadilar.

Kredit-modul tizimida mustaqil ta'limning ulushi ortishi ham mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Chunki mustaqil ta'lim jarayonida talaba ma'lumot izlaydi, manbalarni solishtiradi, ularning ishonchligini baholaydi, muhim g'oyalarni ajratadi va

o‘z xulosasini shakllantiradi. Biroq bu jarayon samarali bo‘lishi uchun mustaqil ta‘lim topshiriqlari oddiy referat yozish yoki tayyor ma‘lumotlarni ko‘chirish shaklida emas, balki tahliliy, muammoli va ijodiy xarakterda bo‘lishi zarur. Masalan, “boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish”, “dars jarayonida o‘quvchilar javobidagi mantiqiy xatolarni aniqlash”, “muammoli vaziyat asosida dars fragmentini loyihalash” kabi topshiriqlar talabani faol fikrlashga undaydi.

Shu bilan birga, mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda baholash tizimi alohida o‘rin tutadi. Kredit-modul tizimida talabani baholash faqat yakuniy nazorat natijasiga emas, balki joriy, oraliq va mustaqil faoliyat ko‘rsatkichlariga asoslanadi. Bu esa mantiqiy fikrlashni bosqichma-bosqich baholash imkonini beradi. Bunda talabani faqat to‘g‘ri javob topishi emas, balki javobga qanday kelgani, dalillarni qanday tanlagani, xulosasini qanday asoslagani, muammoni qanday tahlil qilgani ham e‘tiborga olinishi lozim. Demak, baholash mezonlari mantiqiy izchillik, dalillash, tahliliy yondashuv, sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash, umumlashtirish va refleksiya kabi indikatorlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

Interaktiv metodlar ham ushbu kompetensiyani shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Aqliy hujum, klaster, konseptual xarita, debat, keys-stadi, loyiha metodi, muammoli savol, “insert”, “B-B-B”, “Venn diagrammasi” kabi metodlar talabalarni o‘z fikrini izchil bayon etish, turli qarashlarni solishtirish, dalillar asosida xulosa chiqarish va qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Ayniqsa, keys-stadi metodi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatida uchraydigan real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, o‘quvchining darsdagi sust ishtiroki, topshiriqni noto‘g‘ri tushinishi yoki mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yishi bilan bog‘liq vaziyatlar tahlili talabalarda pedagogik tafakkur va mantiqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Raqamli ta‘lim vositalaridan foydalanish ham mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Elektron ta‘lim platformalari, onlayn testlar, interaktiv topshiriqlar, virtual muhokama maydonlari va ta‘limiy dasturlar talabalarning fikrlash jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli platformalarda beriladigan tahliliy topshiriqlar, avtomatlashtirilgan baholash natijalari, individual fikr-mulohazalar va refleksiv yozuvlar talabani o‘z fikrlash jarayonini anglashiga yordam beradi. Biroq raqamli vositalardan foydalanish texnik jihatdan emas, balki didaktik maqsadga muvofiq tashkil etilishi lozim. Aks holda texnologiya mantiqiy tafakkurni rivojlantirish vositasiga emas, oddiy axborot uzatish kanaliga aylanib qoladi.

Tezis mavzusi doirasida yana bir muhim masala — mantiqiy fikrlash kompetensiyasining tarkibiy komponentlarini aniqlashdir. Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalarida ushbu kompetensiya, birinchidan, kognitiv komponent, ya‘ni mantiqiy tushunchalar, tafakkur operatsiyalari va pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish bilan; ikkinchidan, faoliyatli komponent, ya‘ni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, dalillash va xulosa chiqarish ko‘nikmalari bilan; uchinchidan, motivatsion komponent, ya‘ni mustaqil fikrlashga intilish, muammoga qiziqish va bilishga ehtiyoj bilan; to‘rtinchidan, refleksiv komponent, ya‘ni o‘z fikrini baholash, xatolarini anglash va ularni tuzatish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Ushbu komponentlarning uyg‘un rivojlanishi talabani haqiqiy mantiqiy fikrlash kompetensiyasiga ega bo‘lishini ta‘minlaydi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar ko‘pincha nazariy bilimlarni yodlab olishga moyil bo‘ladilar, biroq ularni real pedagogik vaziyatlarda qo‘llashda qiyinchilikka duch keladilar. Bu holat mantiqiy fikrlashning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi. Masalan, talaba didaktik tamoyillarni sanab bera olishi mumkin, lekin dars jarayonida qaysi tamoyil qanday vaziyatda qo‘llanishini asoslab bera olmasligi mumkin. Demak, ta‘lim jarayonida reproduktiv

topshiriqlar bilan bir qatorda tahliliy, amaliy va muammoli topshiriqlarning ulushini oshirish zarur.

Kredit-modul tizimi sharoitida o'qituvchining roli ham o'zgaradi. U endi faqat bilim beruvchi emas, balki talabani mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi, o'quv jarayonini loyihalovchi, individual ta'lim trayektoriyasini qo'llab-quvvatlovchi va tahliliy muhit yaratuvchi metodik rahbar sifatida faoliyat yuritadi. O'qituvchi har bir modul bo'yicha talabani fikrlashga undaydigan savollar, muammoli vaziyatlar, amaliy topshiriqlar va refleksiv faoliyat turlarini ishlab chiqishi lozim. Aynan o'qituvchining metodik mahorati mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining samaradorligini belgilaydi.

Shuningdek, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda milliy ta'lim mazmuni va zamonaviy pedagogik talablar uyg'unligini ta'minlash muhimdir. Chunki bo'lajak pedagog o'z kasbiy faoliyatida milliy qadriyatlar, ona tili, xalq og'zaki ijodi, bolalar adabiyoti va milliy tarbiya vositalaridan foydalangan holda o'quvchilarda tafakkurni rivojlantirishi zarur. Masalan, maqollar, topishmoqlar, ertaklar, mantiqiy savollar va xalqona didaktik materiallar boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Shu sababli talabalarni bunday materiallarni pedagogik maqsadda tahlil qilish va dars jarayoniga moslashtirishga o'rgatish zarur. Kredit-modul tizimida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish ko'p omilli va tizimli jarayon hisoblanadi. Bu jarayon o'quv rejalari, fan dasturlari, modul topshiriqlari, mustaqil ta'lim, interaktiv metodlar, raqamli vositalar, baholash mezonlari va pedagogik amaliyotning o'zaro uyg'unligini talab qiladi. Agar ushbu komponentlar yagona metodik tizim asosida tashkil etilsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nafaqat nazariy bilimlari, balki tahliliy tafakkuri, kasbiy qaror qabul qilish qobiliyati va pedagogik ijodkorligi ham rivojlanadi.

Kredit-modul tizimida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika, psixologiya, didaktika va kompetensiyaviy ta'lim nazariyalari bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu muammoning nazariy asosini, avvalo, shaxsning intellektual rivojlanishi, tafakkur operatsiyalari, mustaqil o'quv faoliyati va kasbiy kompetentlikni shakllantirish haqidagi ilmiy qarashlar tashkil etadi. Chunki mantiqiy fikrlash kompetensiyasi oddiy bilimlar yig'indisi emas, balki talabaning bilimni anglash, tahlil qilish, bog'lash, dalillash, umumlashtirish va amaliy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatidir.

Pedagogik nuqtai nazardan mantiqiy fikrlash inson tafakkurining izchillik, asoslanganlik, sabab-oqibatni anglash, muammoni tahlil qilish va xulosa chiqarishga yo'naltirilgan murakkab intellektual faoliyatidir. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi uchun bu kompetensiya alohida ahamiyatga ega, chunki u kelajakda kichik yoshdagi o'quvchilarning dastlabki fikrlash madaniyatini shakllantiradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarga faqat bilim beruvchi emas, balki ularni savol berishga, kuzatishga, taqqoslashga, guruhlashga, izohlashga va mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatuvchi pedagogik yetakchidir.

Nazariy jihatdan mantiqiy fikrlash kompetensiyasi bir necha asosiy tafakkur operatsiyalariga tayanadi. Bular — tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, tasniflash, dalillash va xulosa chiqarishdir. Tahlil orqali talaba o'rganilayotgan hodisa yoki muammoni tarkibiy qismlarga ajratadi; sintez orqali esa bu qismlarni yaxlit tizim sifatida birlashtiradi. Taqqoslash hodisalar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlashga yordam beradi. Umumlashtirish orqali talaba alohida faktlardan umumiy xulosaga keladi. Dalillash esa fikrning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi. Demak, mantiqiy fikrlash kompetensiyasi talabaning bilish faoliyatini tartibga soluvchi asosiy intellektual mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Kredit-modul tizimi sharoitida ushbu kompetensiyaning rivojlanishi talabning mustaqil ta'lim faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Mazkur tizimda o'quv jarayoni modullar asosida tashkil etilib, har bir modul aniq maqsad, kutilayotgan natija, baholash mezonlari va mustaqil topshiriqlar bilan belgilanadi. Bu esa talabadan o'z bilimini mustaqil boshqarish, axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etishni talab qiladi. Shunday qilib, kredit-modul tizimi talabning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun tabiiy didaktik muhit yaratadi.

Mantiqiy fikrlash kompetensiyasining nazariy asoslaridan biri kompetensiyaviy yondashuvdir. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonida faqat bilim berishni emas, balki bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat va shaxsiy sifatlarni amaliy faoliyatda qo'llashga tayyorlikni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, mantiqiy fikrlash kompetensiyasi talabning nazariy bilimlarni amaliy pedagogik vaziyatlarda ongli qo'llashi, muammoni aniqlashi, yechim variantlarini baholashi va asoslangan qaror qabul qilishi bilan tavsiflanadi.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mantiqiy fikrlash kompetensiyasi kasbiy kompetentlikning ajralmas tarkibiy qismidir. Chunki bo'lajak o'qituvchi dars mazmunini rejalashtirish, o'quv topshiriqlarini tanlash, bolalar javoblarini tahlil qilish, ularning xatolarini aniqlash va tuzatish, didaktik materiallarni mantiqiy izchillikda joylashtirish kabi faoliyatlarda doimiy ravishda mantiqiy fikrlashga tayanadi. Demak, ushbu kompetensiya nafaqat talabning o'quv faoliyatida, balki uning kelajakdagi pedagogik amaliyotida ham asosiy kasbiy sifat sifatida namoyon bo'ladi. Kredit-modul tizimida bu komponentlarning har biri alohida didaktik ahamiyat kasb etadi. Masalan, kognitiv komponent fan modullarining nazariy mazmuni orqali shakllansa, faoliyatli komponent seminar, amaliy mashg'ulot, keys, loyiha va mustaqil topshiriqlar orqali rivojlanadi. Motivatsion komponent talabning individual ta'lim trayektoriyasi, reyting tizimi va o'zlashtirish natijalariga bo'lgan mas'uliyati orqali mustahkamlanadi. Refleksiv komponent esa o'z-o'zini baholash, portfolioni yuritish, tahliliy yozuvlar va fikr-mulohaza asosida shakllanadi.

Mantiqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning muhim nazariy tayanchlaridan yana biri faoliyatli yondashuvdir. Ushbu yondashuvga ko'ra, talaba bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki faol harakat, izlanish, muammo yechish va amaliy tajriba orqali egallaydi. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida bu yondashuv ayniqsa muhimdir, chunki bo'lajak o'qituvchi pedagogik vaziyatlarni faqat nazariy tushunish bilan cheklanmasdan, ularni amaliy tahlil qilish va hal etishga ham tayyor bo'lishi kerak. Muammoli topshiriqlar, pedagogik vaziyatlar, dars ishlanmalarini tahlil qilish, o'quvchilarning fikrlash xatolarini aniqlash kabi faoliyatlar talabning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi.

### References:

1. Yusupov A. Pedagogik ta'limda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalar. — Toshkent: Mumtoz so'z, 2023. — 224 b.
2. Raximov B. Oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish metodikasi. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. — 198 b.
3. Axmedov Q. Kredit-modul tizimi asosida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. — 176 b.
4. To'xtayeva M. Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish metodikasi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. — 192 b.
5. Karimova D. Bo'lajak o'qituvchilarda tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2024. — 210 b.

6. Rasulov S. Oliy ta’limda mustaqil ta’lim samaradorligini oshirishning didaktik asoslari. — Buxoro: Durdona, 2021. — 168 b